



**ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARIGA MUHTOJ BOLALARINI OILADA
TARBYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Nurmuhamedova Laylo Sharafovna
Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya Mazkur maqolada alohida ta’lim ehtiyojlariga muhtoj bolalarni oilada tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni tarbiyalash jarayonida talab etiladigan e’tibor va maxsus metodlar yuzasidan fikrlar bildirilgan. Ushbu bolalar uchun oilaviy tarbiya tizimi individual yondashuvni, doimiy qo‘llab-quvvatlashni va hissiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan ishlarni tashkil qilish mexanizmi haqida qarashlar bayon qilingan. Buyuk bobokolonlarimiz asarlarida oila, bola tarbiyasi, alohida ta’lim yuzasidan olimlarning qarashlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Alohida ta’lim ehtiyojlari, oilaviy tarbiya, individual yondashuv, hissiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, mustaqillik.

Annotation This article presents views on the specific features of raising children with special educational needs in the family, the attention and special methods required in the process of raising them. Views are expressed on the mechanism for organizing work aimed at ensuring an individual approach, constant support and emotional development in the family education system for these children. The works of our great forefathers touch upon the views of scientists on family, child education, and special education.

Keywords: Special educational needs, family education, individual approach, emotional development, social adaptation, independence.

Аннотация В статье рассматриваются особенности воспитания детей с особыми образовательными потребностями в семье, необходимое внимание и специальные методы в процессе их воспитания. Высказаны мнения о механизме организации работы, при котором система семейного воспитания таких детей направлена на обеспечение индивидуального подхода, постоянной поддержки и эмоционального развития. Труды наших працедоров затрагивают взгляды ученых на семью, воспитание детей и специальное образование.

Ключевые слова: особые образовательные потребности, семейное воспитание, индивидуальный подход, эмоциональное развитие, социальная адаптация, самостоятельность.

KIRISH. Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Biz jamiyatimizdagi quyi pog‘onadagi tartib, intizom va mas’uliyatni mutlaqo o‘zgartirmoqchimiz. Eng zaif tomonimiz - yoshlar bilan shug‘ullanmayapmiz. Buni gapirish oson, endi shug‘ullantiradigan tizim joriy etishimiz kerak. Mas’uliyatli odamlarni shu lavozimlarga qo‘yishimiz kerak”. [1.56]

Mamlakatimizda ma’naviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki inson jamiyatning tayanchidir. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, “...kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir... Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi”. [2.23]

Sog‘lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g‘oyatda mas’uliyatli vazifa, shuningdek insonparvarlik siyosat natijasidir. Sog‘lom avlodni tarbiyalab o‘stirish g‘oyatda mas’uliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoyalash ta’lim olish barcha qatori umumta’lim muassasalarida teng huquqli sharoitda ta’lim-tarbiya olish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko‘zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e’tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. 2017-yil 1-avgustdagи “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularni to‘laqonli ta’lim olishi, jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, ularni sog‘lomlar qatorida jamiyatga uyg‘unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni nazarda tutadi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning to‘rtinchı ustuvor yo‘nalishida “aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ”ni kuchaytirishga alohida e’tibor berildi. [4.39] O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lidan borar ekan, inson huquq va erkinliklarini ta’minlab, jamiyatni ma’naviy jihatdan boyitib borishni, dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvni amalga oshirmoqda. Jamiyatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik o‘zgarishlar jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. [2.23] Sog‘lom avlodni tarbiyalab o‘stirish g‘oyatda mas’uliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir.

Maxsus maktabda aqli zaif bolalarni boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minalash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to‘laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, o‘zlarining fuqarolik majburiyatlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-

sharoitlar yaratish mamlakatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mamlakatimizda ona va bola, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirishga oid chora-tadbirlarning uzviy davomi sifatida samarali bo‘lishiga to‘liq asos bor. Mamlakatimizda jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, yurtimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalab ulg‘aytirish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko‘lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo‘lda safarbar etish maqsadga muofiq.

O‘zbek xalqi ta’lim tarbiyaga oid boy merosga ega bo‘lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘slik, jismonan baquvvatlik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta’lim - tarbiyaga oid qarashlari ham aynan shunday meros jumlasidandir. Hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri o‘quvchi va talabalarning ma’naviy va ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishda O‘rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz tarixi va ularning asarlarini o‘rganish va hayotga tadbiq qilishdan iborat. Mustaqil Respublikamizda yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Bu masala Priezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Zero avvalom bor yoshlарimizning iymон e’tiqodini mutahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z fikrlariga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash asosiy vazifalardan biri qilib qo‘yilgan. Bu borada keying yillarda diqqatga molik ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa xalq pedagogikasiga, Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi nazariyalarini o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy asarlari yoshlарimizni odobga, ilm olishga, mehnatsevarlikka, mardlik, mehr-muhabbatli bo‘lishga chorlaydi. Adibning “Hayrat ul-abror” asarida odoblilik, hayo, yaxshi nom, ilm-u adabni o‘rganish, ota-onani hurmat qilish kabi axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilgan. Abu Rayhon Beruniy ham axloqiylikka alohida e’tibor bilan qaragan. Rostgo‘ylik, yaxshilik qilish, vijdonlilik, or-nomusli bo‘lish kabi axloqiy sifatlar uning asarlarida yetakchi g‘oyalardan biri bo‘lgan. Bugungi O‘zbekiston mustaqilligining mustahkamligi, uning keljak ravnaqi avvalo uning fuqarolariga, ularning amaliy faoliyatiga, ma’naviy barkamolligiga, g‘oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o‘zligini qanchalik anglay olishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bunda esa tabiiyki oilada bolalarga singdirilgan tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rinib turibdiki, bu borada birinchi navbatda oila va oiladagi tarbiya masalalariga taalluqli bo‘lgan, murakkab pedagogik munosabatlarni hal qilishi lozim. Zero oila baquvvat o‘z tarixiy silsilasi, o‘z Vatani, o‘z ijtimoiy tuzumi tuyg‘usini zo‘r kuch va ehtirom bilan his etadigan bolalarni tarbiyalab beradigan bir markaziy o‘choqki, oilaning tabaqasi, pedagogik, ma’rifiy bilimi, ijtimoiy va psixologik sharoiti har xil bo‘lishiga qaramasdan unda olib borilayotgan tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari tashkil etilishi va

olib borilishi jihatidan har xil bo‘lsa-da, lekin uning bosh mezoni bolani ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ma’lumki, oilada bolani ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda o‘zbek xalq pedagogikasida to‘plangan boy tajribalar, azaliy odatlar, ko‘p asrlar davomida qo‘llangan usul va vositalar tadbir shakllari, milliy urf-odatlar va an’analar tarbiya haqidagi g‘oyalar, uslubiy tavsiyalar, ulug‘ mutafakkirlarning ta’limotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy tarbiya shaxsning barkamol qilib tarbiyalashda asosiy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ham pedagogikada axloqiy tarbiya masalalariga katta ahamiyat beriladi. Ayniqsa hozirgi davrda axloqiy tarbiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda, chunki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etish ko‘p jihatdan jamiyatning va undagi shaxslarning axloqiy darajasiga bog‘liq. Ma’lumki, oila jamiyatning boshlang‘ich pog‘onasi bo‘lib, turli vazifalarni bajarishga qodir va ulardan eng muhimi bolalarni tarbiyalashdir. Rivojlangan jamiyatda bolalarning axloqiy tarbiyasi masalari bilan boshqa jamiyat institutlari ham qator ishlarni amalga oshirishiga qaramasdan, tarbiyaviy ishda oilaning o‘rni susaygani yo‘q, aksincha kuchaydi. Shu bois oila bilan jamiyat ta’lim-tarbiyaning murakkab tizimini va birinchi navbatda maktabgacha tarbiya muassasalari bilan o‘zaro ta’sirining tashkiliy shakl va usullarini izlash masalasi gavdalananadi.

Bola shakllanishida oilaning katta va ko‘pincha hal qiluvchi ta’siri bor. Uyda bola taqlid qilishga namuna izlaydi. Bola kuzatib yuradigan shart-sharoit va muammolar uning ma’naviy tushunchasi shakllanishida ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim. Bu imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida ayniqsa muhimdir.

Nogiron bolaning o‘rni oilada o‘ziga xosdir, uning yashash muhiti bilan tanishish, shu muhitda tarbiyalanayotgan bola shaxsini aniqlashda yordam beradi va oila bilan maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi hamkorlikda ish yuritish shakli va usulini aniqlab beradi hamda bu ta’lim- tarbiya berish ishlarida, insonning yuksalishida katta ahamiyat kasb etadi. Alovida yondashish bolaning hozirgi vaqt sharoitidagi holati va ayniqsa yetuklik darajasini e’tiborga oladigan ta’lim- tarbiya rejasini tuzishdir. Har qanday holatda, masalan, oilada o‘jarlik oqibatida janjalli holatlar yuzaga kelgan vaziyatlarda ham alovida yondashishni amalga oshirsa bo‘ladi. Ba’zi ota-onalar bolani o‘zi uchun zarur bo‘lgan, qo‘lidan keladigan vazifalardan ham ozod etadilar. Bunday ota-onalarni ayblastirish mumkin emas, ammo ularning ko‘ngilchanliklari bola uchun foya keltirmaydi. Aksincha, haddan tashqari ko‘ngilchanlik bolaning mustaqilligini cheklaydi, kerakli tajribani to‘plashga ko‘maklashmaydi atrofdagilar bilan munosabatda bo‘lish malakalari shakllanmaydi. Bola katta bo‘lib boradi, lekin xulqida, biron bir faoliyatni amalga oshirishda mustaqil bo‘lmaydi, Ota-onalar nogiron farzandlarning har tomonlama rivojlanishda kechishiga sababchi bo‘ladilar. Bunday holat yuz bermasligi uchun bolani oiladagi mavqeini o‘zgartirish lozim. O‘z-o‘ziga xizmat qilishni asta-sekin bo‘lsa-da iloji boricha to‘liq o‘zlashtirib borishi lozim. Chunonchi, o‘rnini yig‘ish, yuvinish, kiyinish, ovqat yenish va hokazolar. Bolada amaliy ishlarni tez va toza bajarish odatini tarbiyalash lozim. Ota-onalar bolalarini jismoniy jihatdan chiniqtirish bilan bir qatorda, ularning aqliy

rivojlanishlariga ham e’tibor qaratishlari: rasm chizishga, narsalar yasashga bolalar diqqatini jalg qilishlari ham muhimdir. Defektolog bolaga haddan ziyod g‘amho‘rlik qilish uning psixik va jismoniy rivojlanishi uchun foyda bermasligini ko‘rsatib berishi kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Oiladagi nogiron bolalarga nisbatan boshqa munosabat ham uchrab turadi. Bolaning nuqsonligiga ko‘nikishni xohlamasdan, uning qobiliyatini mubolag‘a qilishadi, nuqsonidan ko‘z yumishga harakat qiladilar, ko‘pincha sezmaydilar. Bolani tashxis komissiyasining ko‘rigidan o‘tishga yoki maxsus muassasalarga o‘qishga yuborishga qarshilik ko‘rsatadilar. Bolaning kelajagi haqida hayollar suradilar (“Bolam musiqachi bo‘ladi”, “Umumta’lim maktablarida o‘qiydi”). Bunday ota-onalar uchun bir narsani isbotlash qiyin bo‘ladi. Bolasi uchun butun hayotini, vaqtini mablag‘ini fido qiladilar. Aksincha, shunday ota-onalar ham borki, farzandlarining nuqsonlaridan uyalib ularni odamlardan berkitish, jamoa qatnaydigan yerkarta, kino, teatrlerga bormaslik, hattoki, aylanib kelishga ham rad etish hollari uchrab turadi. Buning oqibatida hayot lahzalaridan mahrum bo‘lgan bolaning avvalo, ongingin o‘sishi sekinlashadi, o‘jar, odamovi bo‘lib qoladi.

Bu turdaggi oila uchun g‘oyaviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish zarurligi ta’kidlanadi. Oila a’zolari o‘rtasida vazifalarni yanada aniqroq taqsimlashni, ona va oiladagi boshqa a’zolarning bola tarbiyasida bir xil ishtirok etishi uqtirib boradi. Ota-onalarga oiladagi tarbiyalanayotgan nogiron bolaning rug‘iy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari, unga individual yondashish kerakligi tushuntirilib, ularning pedagogik bilimini oshirishga yordam beradi. Afsuski, jamiyatimizda notinch oilalar ham kam emas. Bunday turdaggi oilalarga ishlab chiqarish va oilaviy vazifalarga befarq munosabatda bo‘lish, oilaviy an’analarga rioya qilmaslik, uy ishlariga loqayd munosabstda bo‘lish, xo‘jalik yuritishda tartibsizlik xos bo‘ladi. Bunday oilaning a’zolari orasida o‘zaro hurmat yetarli bo‘lmaydi. Bolalarning, shu jumladan, nogiron bolaning tarbiyaga mas’uliyatsizlik bilan qarash holatlari uchraydi. Oiladagi bunday keskin sharoit nogiron bolani qo‘rs-qo‘pol, urishqoq bo‘lib qolishga shuningdek, kattalar va jamoaning talablariga bo‘ysunmaslik kabi xislatlarning shakllanashiga olib keladi.

Ijtimoiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda notinch oilalarning hayot tarzi bolalariga salbiy ta’sir etishi ta’kidlab o‘tilgan, chunki o‘z muammo bilan cheklangan ota-onalar bolalar tarbiyasiga e’tibor berishmaydi. Oila maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalar uchun birinchi ijtimoiy muhitdir, agar u notinch bo‘lsa, bu bolaning sog‘lig‘iga ham, uning xulqiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, urush va janjal sharoitida yashovchi bolalar tinch hayot, uydagi shinamlik, g‘amxo‘rlik va mehrdan bahramand bo‘lmaydilar. Shuning uchun ham ular atrofdagilar bilan muloqotda, o‘zaro munosabatda salbiy tajriba orttirashadi, turli asab kasalliklariga duchor bo‘lishadi.

Ta’lim-tarbiya tashkilotlarida tarbiyachilar nogiron bolalarning salomatligi, xulqi, tengdoshlari bilan munosabatini kuzatib boradilar va bolaning qalbida qanday kechinmalar yuz berayotganligini sezadilar va ularga har tomonlama yordam berishlari: bolaning ota-onasi ishlaydigan korxonadagi jamoat tashkilotlari, kasaba va xotin- qizlar uyushmasi, korxona rahbariyatining, oila istiqomat qiladigan mahalla yordamlari tashkil etilishi kerak.

Oila turlaridan yana biri to‘liqmas oilalardir. Bu turdag'i oilalarda ota-onalarning biri bo‘lmaydi. Agar bunday oila uchun g‘oyaviy yo‘nalganlik, ishlab chiqarish va oilaviy vazifalarga ma’suliyat bilan munosabatida bo‘lish, tarbiyaning maqsad va vazifalarini bilish xos bo‘lsa, u tinch oila bo‘ladi, agar bu shartlar buzilsa notinch oilalar bo‘ladi. Bunday oilada tarbiyaning qiyinligi o‘zaro munosabatlarning muammosi deb qarashimiz kerak. Oila a’zolarining, boshqa yaqin kishilarining bolaga bo‘lgan munosabati uning shakllanishi belgilaydi.

Ma’lumki nogiron bolalarda achinish, aziyat chekish, his- tuyg‘ulari yo‘q, ularning o‘rniga ota-onalari ko‘proq aziyat chekishadi. Chunki ular farzandlari xech qachon mustaqil bo‘la olmasligi, unga doimo alohida diqqat e’tibor berish kerakligini yaxshi bilishadi. Yuzaki tinch oilalar bilan ishslash jarayonida esa ona diqqat e’tiborini oiladagi psixologik vaziyatni, ota-ona o‘rtasidagi munosabat yo‘nalishini ijobiy tomonga o‘zgartishga qaratadi, ota-onalarga hurmat ruhini tarbiyalash, dam olish, o‘qish, mehnat qilish kabi jaoliyat turlariga e’tibor berish zarur. Oila ma’naviy hayotning muhim tarkibiy qismlaridan biri- pesixologik munosabatlardir. Psixologik munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, u ayniqsa boladagi mehr muhabbat hissini ota-onalar mehri shuningdek oila a’zolarining kayfiyatlarini xulq- hislatlarini o‘z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, oilada muhim tarbiyaning maqsadi va ota-onaning bu maqsadga erishishi uchun kerakli darajadagi qobiliyati bo‘lishi, ishbilarmonligi va ayrim paytda istaklari to‘g‘ri kelmaslididan kelib chiqadigan barcha ziddiyatlarni yechish kerak. Mutaxassisning eng so‘nggi diagnozini eshitgani zahotiyoq, ota-onalar bolaning kelajagi haqida tashvish tortishni boshlashadi. O‘z farzandlarining baxtini o‘ylab bola nuqsonini yumshatish- ga harakat qiladilar. Bolaga muhim bo‘lgan faoliyatlarni bajarishni:sovundan qanday foydalanish, qo‘lini va yuzini qanday yuvishi, sochiq bilan qo‘lini, yuzini artish va sochiqni ilib qo‘yishni ko‘rsatish lozim.

Oilada bolaga avvalo, yengil qo‘lidan keladigan vazifalarni bajarish, keyinchalik astasekinlik bilan murakkablashtirib boriladi. Oila mehnatini qizlarniki yoki o‘g‘il bolalarniki deb ajratish shart emas, har bir uy ishi bola uchun foydalidir, uy ishlarini bajarish uchun oddiy va aniq vazifalar berishi kerak. Agar ona ishga ketishidan oldin topshiriquarlarni bo‘lib bersa u holda bu ishlar bajarilishiga ishonish mumkin. Aniq vazifa berilmasa, masalan uyni tozalab qo‘yish bunda bolalar nima qilishlarini bilmay qoladilar. Mehnat hamma vaqt bolani yaxshi xususiyatlarini tarbiyalaydi va nuqsonlarni tuzatishga yordam beradi.

XULOSA. Korreksiya ishlari eshitishidan osongina to‘g‘irlash, yumshatish degan ma’noni bersa ham, amalda oila va maktab hayotida nogiron bolalar bilan ish olib borish juda ham qiyindir. Buning murakkabligini ota-onalar, amaliy hodimlar yaxshi tushunadilar. Chunki, bilimlar tizimini berish, tarbiyalash shaxsni shakllantirish bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalgalashiriladi. Bu ish har bir faoliyatda, tarbiyaviy ishlarda bolalarning butun hayoti davomida amalgalashirilibr boriladi. Bu o‘rinda mashhur fransuz shifokori va oligofrenopedogogi E.Senishning chuqur aqli zaiflrga oid fikrlari juda ko‘p ta’kidlangan. Ota-onalarning o‘z bolalarini psixologiyasini bilmasligi, oilada o‘z farzandlarini o‘ta erkatoy qilib o‘stirishlari, hamda ularni haddan tashqari asrab - avaylab ardoqlashi oilada bola huquqining buzilishiga olib

keladi. Demak, oila va oiladagi bola tarbiyasi, malakasi eng muhim masalalardan biridir. Ota-onalar o‘z farzandlarni voyaga yetmagunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Bu ayniqsa, nogiron va turli xil nuqsonli bolalar uchun muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–engilmas kuch. - Toshkent: O‘zbekiston, 2008. -23 bet
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020
4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sون Farmoni. 2017-yil 7 fevral // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda; 23-son, 448-modda.
5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-sон Farmoni. 2017-yil 1 dekabr.
6. Нурмухамедова Л.Ш. Оилада ногирон фарзандни тарбиялашнинг илмий-назарий асослари. Номзодлик дисс.автореферати, 2005.
7. Muminova L.R., Nurkeldiyeva D.A. Ilk yoshdagи murakkab nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan logopedik-rivojlantiruvchi ishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent, 2011.
8. Абдуллаева Ш.А Формирование сенсорного опыта и методика его организации у детей раннего возраста. - М., 1995.
9. Айрес Э. Дж. Ребенок и сенсорная интеграция. Понимание скрытых проблем развития. - М.: Теревинф, 2009.
10. Ананьев Б.Г, Рыбалко Е.Ф. Особенности восприятия пространства у детей. - М., 1984
11. Безруких, М.М. Возрастная физиология: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М.М. Безруких, В.Д. Сонькин, Д.А. Фарбер. - М.: Академия, 2009.
12. Нурмухамедова Л.Ш.Ногирон болаларни тарбиялашда оила ва маҳсус мұассаса хамкорлигининг таъминланишининг илмий-методик асослари(монография). -Т.: Фан ва технологиялар, 2014. 228 бет.